

Raqamli texnologiyalar vazirligining  
2022-yil 28-oktabrdagi  
513-son buyrug‘iga  
14-ilova

**Raqamli texnologiyalar vazirligi tizimida korrupsiyaga oid  
huquqbuzarliklarni sodir etishga undash holatlari haqida xabar berish,  
ularni ro‘yxatga olish, ko‘rib chiqish hamda ularga qarshi kurashishdagi  
xodimlarning faol ishtiroki uchun rag‘batlantirish to‘g‘risidagi  
TARTIB**

Mazkur Tartib O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-fevraldagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2752-son Qarori hamda 2020-yil 29-iyundagi PF-6013-son “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida ”gi Farmoni talablariga muvofiq ishlab chiqilgan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligida (keyingi o‘rinlarda - Vazirlik) korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etishga undash holatlari haqida xabar berish, ularni ro‘yxatga olish, ko‘rib chiqish hamda ularga qarshi kurashishdagi xodimlarning faol ishtiroki uchun rag‘batlantirish tartibini belgilaydi.

**1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur Tartibda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

**vakolatli xodim** - korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida kelib tushgan murojaatlar, xabarlar, ma‘lumotlarni ko‘rib chiqish, ro‘yxatga olish va tekshirish huquqiga ega bo‘lgan Vazirlikning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ichki nazorat tuzilmasi xodimlari;

**rag‘batlantirish** – xodimni korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni oldini olish va unga qarshi kurashishdagi faol ishtiroki, yuksak kasbiy mahorati, qonuniylik talablariga rioya etishi borasida namuna ko‘rsatganligi uchun qo‘llab-quvvatlash maqsadida taqdirlash.

**Vazirlik xodimi** – Vazirlik bilan mehnat munosabatlariga kirishgan xodimlar.

**2-bob. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etilishining  
oldini olish va unga qarshi kurashish**

2. Vazirlik xodimi (bundan buyon matnda xodim deb yuritiladi) qonun hujjatlariga rioya etishi, o‘z mansab yoki xizmat majburiyatlarini beg‘araz,

xolisona, vijdonan, odob-axloq qoidalariga rioya etgan holda bajarishi hamda korrupsiyaga oid biror-bir huquqbuzarlikni sodir etishdan yoki bunday huquqbuzarlikni sodir etish uchun shart-sharoitlar yaratadigan boshqa har qanday harakatlardan o'zini tiyishi shart.

3. Vazirlikning tizimidagi korxonada, tashkilot va muassasalar rahbarlari korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olish uchun quyidagi choralarni ko'rishlari lozim:

o'zi rahbarlik qilayotgan korxonada korrupsiyaning har qanday ko'rinishlariga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish;

qo'l ostidagi xodimlariga korrupsiya holatlarini aniqlashda shaxsan o'rnak bo'lishi;

qo'l ostidagi xodimiga rahnamolik (asossiz rag'batlantirish va lavozimni ko'tarish), shuningdek, nojo'ya ishlariga beparvolik (faoliyatdagi kamchiliklar uchun chora ko'rmaslik, huquqqa zid harakatlarga e'tibor bermaslik) holatlariga yo'l qo'ymaslik;

korxonada faoliyatini tizimli tahlil qilib, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni keltirib chiqaradigan omillarni aniqlash va shart-sharoitlarni bartaraf etishning ta'sirchan choralarni ko'rib borish.

Vazirlikning tarkibiy tarmoqlari rahbarlari vakolat doirasida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni oldini olish yuzasidan boshqa choralarni ham ko'rishi mumkin.

### **3-bob. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etishga undash holatlari to'g'risida xabar berish**

5. Xodimlarni korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etishga undash maqsadida murojaat qilinganligi haqida to'g'ridan-to'g'ri vazirlikning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat tuzilmasi orqali vazir nomiga yozma ravishda bildirgi bilan darhol xabar beriladi.

6. Bildirgida quyidagilar aks ettirilishi lozim:

xodimning xizmat joyi, lavozimi, familiyasi, ismi va otasining ismi;

korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etishga undayotgan shaxsga oid yoki uning shaxsini aniqlashga ko'maklashuvchi ma'lumotlar va boshqalar;

korrupsiyaga oid huquqbuzarlikning mohiyati (mansab lavozimini suiiste'mol qilish, pora olish va boshqa jinoiy harakatlarni sodir etishga undash, hujjatlarni qalbakilashtirish va boshqalar);

korrupsiyaga oid huquqbuzarlikka undash usuli (muayyan xizmat yoki moddiy qimmatliklar taklif qilish, o'ziga og'dirishga harakat qilish va boshqa holatlar);

korrupsiyaga oid huquqbuzarlik tayyorlanayotgan, sodir etilishi kutilayotgan, sodir etilgan joy;

korrupsiyaga oid huquqbuzarlikka undash holati tafsilotlari (telefon aloqa vositasi, suhbat jarayoni, shaxsiy muloqot, pochta jo'natmasi orqali va boshqalar).

7. Xodimlarni korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etishga undash maqsadida qilingan barcha mavjud materiallar bildirgiga ilova qilinadi va o'rnatilgan tartibda rasmiylashtiriladi.

8.Xodim vazirlikning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat tuzilmasiga korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etishga undash haqida og'zaki xabar berishi mumkin. Bunda bildirgi vazirlikning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat tuzilmasi tomonidan rasmiylashtiriladi.

9.Xodimga o'z xizmat mavqeidan foydalangan holda jismoniy va yuridik shaxslardan ularning manfaatlarini ko'zlagan holda muayyan harakatni bajarishi yoki bajarmasligi evaziga bevosita o'zi yoki vositachi, pochta jo'natmasi orqali pul, qimmatbaho buyumlar davolanish va boshqa shu kabi takliflar bilan murojaat qilingan taqdirda, u noqonuniy xatti-harakatlarni to'xtatishni talab qilishi va shaxsni tegishli javobgarlik to'g'risida ogohlantirishi lozim.

10.Xodimning ogohlantirishiga qaramasdan pul yoki boshqa moddiy boyliklarni qonunga xilof ravishda uning xizmat xonasida yoki boshqa joyda qoldirib ketsa mas'ul shaxslar (qo'riqlash yoki navbatchilik qismi xodimlari) va boshqa shaxslar ishtirokida dalolatnoma tuziladi. Ushbu dalolatnoma bildirgiga ilova qilingan holda darhol rahbariyatga taqdim etiladi.

11.Xodimlar xizmatdan tashqari yoki ish joyida bo'lmagan paytlarida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etishga undash holati haqida har qanday aloqa vositasi orqali zudlik bilan vazirlikning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat tuzilmasi xodimlariga ma'lum qiladi va bu haqida bir sutka mobaynida belgilangan tartibda vazir nomiga yozma ravishda bildirgi bilan xabar beriladi.

12.Xodimlarga nisbatan tayyorlanayotgan, sodir etilishi kutilayotgan yoki sodir etilgan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga undash holatlari Vazirlikning boshqa bir xodimiga ma'lum bo'lsa, biroq, ushbu xodim korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat tuzilmasini o'z vaqtida xabardor qilmasa, amaldagi qonunchilik normalariga muvofiq javobgar bo'ladi.

13.Tayyorlanayotgan, sodir etilishi kutilayotgan yoki sodir etilgan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etishga undash bo'yicha olingan ma'lumotni tekshirish va qonuniy to'xtamga kelish uchun bildirgi va unga ilova qilingan barcha hujjatlar vazirning munosabat belgisi bilan vakolatli xodimga topshiriladi.

14.Xodimlarning xizmat vazifalarini bajarish jarayonida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etishga undash holatlari haqidagi murojaatlarni ro'yxatga olish, hisobini yuritish maqsadida, vazirlikning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat tuzilmasida korrupsion harakatlar haqidagi habarlarni qabul qilish reyestrda (bundan buyon matnda - Reyestr) yuritiladi va belgilangan tartibda saqlanadi.

15. Reyestr qat'iy hisobot hujjati hisoblanib, ish yuritish qoidalariga muvofiq rasmiylashtiriladi.

16. Reyestrda xabar bergan xodimning familiyasi, ismi va otasining ismi, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etishiga undash holatining qisqacha mazmuni va tavsifi, moddiy yoki mulkiy naf ko'rish miqdori, holat yuzasidan tekshiruv o'tkazgan vakolatli xodim, qabul qilingan yakuniy qaror hamda xodimlar tomonidan yetkazilgan bildirgi ro'yxatdan o'tkaziladi.

17.Vakolatli xodimning bildirgini qabul qilish yoki ro'yxatga olishdan bosh tortishiga yo'l qo'yilmaydi.

18. Reyestrda xabar qilayotgan xodimning shaxsiy hayoti haqida oshkor bo'lgan ma'lumotlar, shaxsiy yoki oilaviy sirlarini aks ettirish taqiqlanadi.

19. Yuritilishi tugatilgan reyestr o'n yil davomida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat tuzilmasida saqlanadi va tegishli tartibda arxivga topshiriladi.

20. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etishga undash holatlari haqida xabar bergan xodimlar taqibga olinmasligi maqsadida ular to'grisidagi ma'lumotlar oshkor etilishi taqiqlanadi.

#### **4-bob. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etishga undash to'g'risidagi ma'lumotlarni ko'rib chiqishni tashkil etish tartibi**

21. Bildirgida aks ettirilgan ma'lumotlarni tekshirish vazirning topshirig'iga ko'ra amalga oshiriladi.

21. Bildirgida bayon etilgan ma'lumotlarni ko'rib chiqishdan asosiy maqsad:

xodimning harakatiga huquqiy baho berish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etishga undashda ishtirok etuvchi shaxslar doirasi va faktlarni aniqlash;

moddiy yoki mulkiy naf ko'rish miqdori, pora olishga undash usuli va uni o'z vaqtida aniqlash;

korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etishga undash holatining kelib chiqishini oldini olishga qaratilgan choralarni ko'rish, xodimlar tomonidan noqonuniy harakatlar sodir etilishiga yo'l qo'ymaslik;

korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etishga undash holatining ijtimoiy xavfliligini aniqlash.

22. Tekshiruv jarayonida bildirgida xodimni korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etishga undash to'g'risidagi belgilar mavjudligi o'rganiladi, shuningdek, mazkur huquqbuzarliklarni sodir etishga undash haqida xabar bergan xodimdan tushuntirishlar olinishi mumkin.

23. Bildirgida bayon etilgan ma'lumotlar tegishli tartibda vakolatli xodim tomonidan ko'rib chiqiladi.

24. Zaruriyatdan kelib chiqib vazirning topshirig'iga ko'ra, bildirgida bayon etilgan ma'lumotlarni ko'rib chiqilishida vakolatli davlat organlari ham jalb qilinishi mumkin.

25. Bildirgida bayon etilgan ma'lumotlarni tekshirish o'n sutkadan kechiktirmasdan hal qilinishi lozim. Qo'shimcha tekshiruv o'tkazish zarur hollarda bildirgida bayon etilgan ma'lumotlarni tekshirish, vazir tomonidan bir oygacha uzaytirilishi mumkin.

26. Bildirgini ko'rib chiqish natijalari bo'yicha vakolatli xodimlar tomonidan xizmat tekshiruvi o'tkazilib, xizmat tekshiruvi xulosasi va to'plangan hujjatlar nazorat tartibida ko'rib chiqish uchun belgilangan tartibda tegishli huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yuboriladi.

27. Bildirgida og'ir yoki o'ta og'ir jinoyat alomatlari aniqlangan hollarda belgilangan tartibda tegishli huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar qilinadi.

## **5-bob. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning sodir etilishini oldini olish va unga qarshi kurashishda faol ishtirok etgan xodimlarni rag‘batlantirish**

28. Xodimlarning korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etilishini oldini olish va unga qarshi kurashishdagi faol ishtirokini rag‘batlantirishning asosiy maqsadi quyidagilardan iborat:

Vazirlik tizimida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etilishini oldini olishda va unga qarshi kurashishda faol ishtirok etgan, huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablari va bunga imkon beruvchi shart-sharoitlarni bartaraf etish borasida rahbariyatga asosli taklif va tashabbuslarni taqdim etgan, shuningdek, mazkur sohani takomillashtirish bo‘yicha salmoqli ilmiy hissa qo‘shgan, xizmat faoliyati davomida yuksak darajada namuna ko‘rsatgan va o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni sidqidildan, vijdonan bajargan xodimlarni rag‘batlantirish;

xodimlarning korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etilishini oldini olish va unga qarshi kurashishdagi faolligini yanada oshirish.

29. Xodimlar korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida murojaat etib, huquqbuzarliklar (jinoyat)ni oldini olish, to‘xtatish va uni to‘liq fosh etishda faol ishtirok etganligi uchun, vazirlikning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ichki nazorat tuzilmasi tomonidan vazir nomiga kiritilgan bildirgi asosida rag‘batlantiriladi. Xodimlarni rag‘batlantirish vazirning vakolati doirasida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

30. Quyidagi asoslardan biri mavjud bo‘lgan taqdirda xodimlar rag‘batlantirilishi mumkin:

xodimlarga nisbatan qasddan sodir etilishi rejalashtirilayotgan korrupsiyaga oid huquqbuzarlikning oldi olinishi yoki to‘xtatilishi;

tayyorgarlik ko‘rilayotgan korrupsiyaga oid yoki boshqa huquqbuzarliklar haqida xabar berishi natijasida jinoyat fosh etilishi;

jinoyatni to‘xtatishi va uni to‘liq fosh etishda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga faol ko‘maklashish;

aholi o‘rtasida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish borasidagi targ‘ibot va profilaktik tadbirlarda faol ishtirok etishi;

korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablari va bunga imkon beruvchi shart-sharoitlarni bartaraf etish borasida rahbariyatga taklif va tashabbuslarini taqdim etilishi, shuningdek, ushbu takliflarni amaliyotga joriy etilishi.

31. Xodimni rag‘batlantirish, yuqori lavozimlarga yoki davlat mukofotlariga tavsiya qilishda uning korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni oldini olish va unga qarshi kurashdagi faol ishtiroki asosiy mezon sifatida inobatga olinadi.

32. Vazirlik hamda uning tizimidagi korxonalar, tashkilot va muassasalarda faoliyat yuritayotgan xodim tomonidan sohadagi korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida murojaat etib, huquqbuzarliklar (jinoyat)ni oldini olish,

to'xtatish va uni to'liq fosh etishda faol ishtirok etganda, asosli ma'lumotlar taqdim etganda ushbu xodimga Vazirlikning tavsiyasiga asosan u faoliyat yuritayotgan korxonada yoki tashkilot tomonidan o'rnatilgan tartibda rag'batlantirish amalga oshiriladi.

### **6-bob. Yakuniy qoidalar**

33. Mazkur Tartib talablarini buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq javob beradilar.